

**KORRUPSIYAGA OID JINOYATLARNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI VA
JINOYATCHI SHAXS MUAMMOLARI****Majitov Alijon Vali o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti "70420123-Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati" yo'nalishi magistranti

alijonmajidov7@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15629170>

Annotatsiya. Ushbu maqolada korrupsiyaga oid jinoyatlar tushunchasi, korrupsiyaga oid jinoyatlarning kriminologik tavsifiga alohida to'xtalib, korrupsiyaviy jinoyatchilikning yuzaga kelish omillari, sabablari va imkon bergan shart-sharoitlari, korrupsiyaga oid jinoyatlarning kriminologik tavsifi va jinoyatchi shaxs muammolari hamda ushbu turdagi jinoyatlarning oldini olish masalalari, ushbu sohaga oid qonunchilikning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan hamda milliy qonunchiligimizni takomillashtirishga qaratilgan tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, kriminologik tavsif, jinoyatchi shaxs, latent jinoyat, korrupsioner, xulq-atvor kodeksi, maishiy korrupsiya, ochiqlik.

Material va metodlar: Maqola tayyorlashda O'zbekiston va xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurash siyosati, xalqaro huquqiy me'yorlar, davlat dasturlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, shuningdek, ilg'or ilmiy va yuridik adabiyotlardan keng foydalanildi. Matnda bir qator xorijiy va milliy olimlarning izlanishlari, Daniya, Singapur, Ukraina, Qozog'iston va boshqa mamlakatlarning qonunchilik tajribasi, Transparency International xalqaro reytinglari va O'zbekistonning rasmiy statistik ma'lumotlari, tahliliy, mantiqiy, tizimli va qiyosiy-huquqiy metodlar asosida tahlil qilindi.

Kirish. Bugungi zamonaviy dunyoda korrupsiyaviy jinoyatlarni ishonch bilan nafaqat bizning davlatimizda, balki dunyoning boshqa ko'plab sivilizatsiyalashgan mamlakatlarida ham mavjud bo'lgan an'anaviy va yetarlicha keng tarqalgan jinoyat turi deb atash mumkin. Xususan, BMT bosh kotibi Antonio Guterrish so'zlariga ko'ra, bir yilda dunyo bo'yicha poraxo'rlik jinoyatlari hajmi bir trillion dollarga teng bo'lib, oqibatda global iqtisodiyot 2,6 trln dollar, ya'ni umumjahon YaIM 5 % dan ortig'ini tashkil etadi¹.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003-yil 31-oktabrda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurash Konvensiyasi" muqaddimasida "Korrupsiya jamiyat barqarorligi va xavfsizligiga tahdid soladigan, demokratik institutlar, axloqiy qadriyatlar va adolatga putur yetkazadigan hamda barqaror rivojlanish va qonun ustuvorligiga zarar yetkazuvchi muammolar va tahdidlarning jiddiyligi"² deya qayd etilgan. Aytishimiz mumkinki, korrupsiya faqat mahalliy muammo emas, balki barcha mamlakatlar jamiyati va iqtisodiyotiga ta'sir qiluvchi transmilliy hodisaga aylanib bormoqda.

Hozirgi kunda O'zbekiston jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi faol kurash yo'lidan bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Korrupsiyaning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investisiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi". Bugungi kunda mamlakatimiz uchun korrupsiya muammosi, uning turli ko'rinishlarini yo'q qilish va tarqalishiga qarshi

¹ <https://news.un.org/ru/story/2018/12/1344641>

² United Nations Convention against Corruption (Adopted by General Assembly resolution 58/4 of 31 October 2003). https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/corruption.shtml.

kurashish, korrupsiyaga qarshi samarali siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish juda keskin va hayotiy ahamiyatga ega. Aynan shu maqsadda keng jamoatchilik va ekspertlik muhokamalari natijasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi farmoni e'lon qilingan bo'lib, unda korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish asosiy ustuvor maqsadlardan biri sifatida belgilab qo'yilgan.

Ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi o'laroq mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o'rnini yildan-yilga yaxshilanib bormoqda. Jumladan, Transparency International xalqaro tashkilotining korrupsiyani qabul qilish indeksida davlatimiz 2021-yilda 140-o'rin, 2022-yilda 126-o'rin, 2023-yilda 121-o'rinni egalladi³.

Ammo shunga qaramasdan Respublikamizda 2023-yilda sudlar tomonidan ko'rilgan ayblov hukmi chiqarilgan korrupsiyaga oid jinoyat ishlari soni 4128 tani tashkil etib, jami 6535 nafar shaxs korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlikka tortilgan⁴. Afsuski bu raqamlar O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilashga to'siq bo'lib kelmoqda.

Asosiy qism. Har qanday ijtimoiy-salbiy hodisani yoki jinoyatchilikni, shu jumladan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashda mazkur illatni vujudga keltiruvchi sabablar va unga imkon beruvchi shart-sharoitlarni o'rganish, tahlil qilish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan ushbu ijtimoiy-salbiy hodisani vujudga keltiruvchi sabablar va unga imkon beruvchi shart-sharoitlarni o'rganish va aniqlash orqaligina korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish imkoniyati vujudga keladi.

Professor G.A.Avanesovning fikricha, har bir ijtimoiy voqelik, shuningdek jinoyatchilikni o'rganish ham o'z mohiyatiga ega. Zotan, kriminologiya jinoyatchilikni mavjud voqelik, "yaxlit bir organizm" sifatida o'rganadi⁵.

Kriminologiya nuqtayi nazaridan korrupsiya bu mansabdor shaxslar va davlat xizmatchilarining sotib olinishi va shu asosda ularning o'z shaxsiy yoki jinoiy guruh, uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab rasmiy xizmat vakolatlaridan hamda ular bilan bog'liq obro'si va imkoniyatlaridan foydalanishi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy hodisadir⁶. Ushbu jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi shundan iboratki, ularning sodir etilishi natijasida davlat organlarining normal faoliyati jiddiy ravishda buziladi, umuman olganda jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkaziladi.

Korrupsiya fenomenini tushunishga oid turli metodologik yondashuvlar mavjud bo'lgan. Uning bir qancha: ijtimoiy, siyosiy, kriminologik, huquqiy jihatlarini ko'rib chiqilgan. Xususan, Aflotun va Arastu korrupsiyani siyosiy kategoriya, N.Makiavelli davlat umumiy kasalligining ko'rsatkichi; Sh.Monteskiyo esa uni disfunktsional jarayon ekanligi sababli yaxshi siyosiy tartib yoki tizim yaroqsiz bo'lib qoladi deb baholashgan⁷.

Korrupsiyaning qonunga xilof harakat sifatidagi asosiy belgilaridan biri uning quyidagi

³ <https://www.transparency.org/en/cpi/2023>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ma'lumotnomasi. <https://anticorruption.uz>. [Murojaat vaqti 10.03.2024]

⁵ Kriminologiya: Darslik/ Z.S. Zaripov, Y.S.Pulatov, G.A.Avanesov va boshq.- T.:O'z.Res.IIV Akademiyasi, 2006. 46-b.

⁶ Q.R. Abdurasulova. Kriminologiya. Darslik. -T.: Adolat",2007.182-b.

⁷ Q.R. Abdurasulova. Korrupsiya jinoyatchiligining umumiy tavsifi, sabablari va oldini olish // Huquqiy tadqiqotlar jurnali. -2022.-T.1. №3, 23-b.

harakatlardan birini amalga oshirishni ifodalovchi noyob mexanizmining mavjudligidir⁸:

1. Ikki tomonlama kelishuv: bunda taraflardan biri, davlat yoki boshqa xizmatdagi shaxs (korruptsiya mansabdor shaxs) o'z mansab vakolatlari yoki xizmatlarini mansab vakolati va u bilan bog'liq imkoniyatlar va aloqalardan kelib chiqib, jismoniy yoki yuridik shaxslarga noqonuniy ravishda "sotadi"; ikkinchi tomon (korruptsiya) esa "xaridor" sifatida davlat yoki boshqa hokimiyat tuzilmasidan o'z maqsadlari uchun foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi (imtiyozlarga ega bo'lish, qonunda nazarda tutilgan javobgarlikdan qochish va h.k.);

2. Jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan davlat xizmatchilari yoki mansabdor shaxslarga pora berishga tashabbuskorlik. Bu ko'pincha ularga kuchli psixologik ta'sir orqali amalga oshiriladi.

Demak, aytishimiz mumkinki, korruptsiya bilan bog'liq jinoyatlarning o'ziga xos xususiyati korruptsiya harakatlarida sotib olish va sotish obyektlarining xilma-xilligi va ularning pora beruvchi va pora oluvchi uchun umumiy xudbin motivlari yoki boshqa shaxsiy manfaatlari uchun xizmat qilishidir.

Jinoyatchi shaxsini o'rganish korruptsiyaga oid jinoyatlar kriminologik jihatining muhim elementlaridan biridir. Jinoyatchi shaxsini o'rganishning ahamiyati birinchi navbatda, jinoyat inson harakati va muayyan shaxsning irodasi sifatida uning asosiy belgilari va xususiyatlaridan kelib chiqadi. Majoziy ma'noda jinoyat va jinoyatchi o'ziga xos jinoyat organizmining hujayralari bo'lib, ularni o'rganish va bilish huquqbuzarliklar profilaktikasini keyinchalik tashkil etish va amalga oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyatchi shaxsi – avvalo jinoyat subyektining shaxsidir. Jinoyat qonunchiligiga ko'ra jinoyat sodir qilgan shaxsni jinoyat subyekt deb topishimiz uchun quyidagi ko'rsatkichlarga ega bo'lishi zarur: jismoniy shaxs, shaxsning muayyan yoshga to'lganligi (JK 17-moddaga ko'ra 16 yosh) hamda aqli rasolik.

Ammo jinoyatchi shaxsini tavsiflash uchun jinoyat subyektining faqat jinoyat-huquqiy belgilari yetarli emas. Jinoyat subyektining shaxsi odamning asosan, jinoiy xulq-atvor xususiyatlari bilan bog'liq boshqa turli xildagi ko'rsatkichlarini ham qamrab oladi. Jinoiy xulq-atvor, eng avvalo, odamni qurshagan borliq, muhit bilan belgilanadi. Lekin, ayni vaqtda, u shaxsning muayyan mayllari, intilishlari, xulq-atvor motivlari va maqsadlarini ham aks ettiradi⁹.

Korruptsiyaga oid jinoyatlarning muhim xususiyatlaridan biri korruptsiya xatti-harakatlari subyektlarining o'ziga xosligi bo'lib, ular bir tomondan mansabdor shaxslar va boshqa davlat va nodavlat organlari xodimlari, ikkinchidan esa har qanday jismoniy shaxslar tomonidan sodir etilishidir.

Xususan, Bosh Prokuratura hisobotiga ko'ra, Respublikamizda 2024-yilning 6 oyi davomida jami 1429 ta jinoyat ishi bo'yicha 1785 nafar mansabdor shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilgan hamda mansabdor shaxslarning jinoyatlari oqibatida davlat va jamiyat manfaatlariga 668,2 mlrd so'm miqdorida moddiy zarar yetkazilgan. E'tiborli jihati, javobgarlikka tortilgan mansabdor shaxslarning 13 nafari respublika, 195 nafari viloyat va 1577 nafari tuman-shahar miqyosidagi vazirlik, idora va tashkilotlarda faoliyat yuritgan¹⁰.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kuashish agentligining sohalar kesimida o'tkazilgan tahlillariga ko'ra, xo'jalik yuritish va tadbirkorlik (1550/1435 ta),

⁸ Криминология: Учебник для вузов / под ред. проф. В.Д. Малкова — 27е изд., перераб. и доп. — М.: ЗАО «Юстицинформ», 2006. — 528 с.

⁹ S.Niyazova, X.Ochilov, A.Allanova. Kriminologiya (Umumiy qism). O'quv qo'llanma. TDYU. 2021, 38-bet.

¹⁰ <https://www.prokuratura.uz>

ta'lim (586/778 ta), bank sohasida (323/381 ta), huquqni muhofaza qilish – 211/222 ta) sohalarida eng ko'p korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etilgan¹¹.

Korrupsiyalashgan shaxsni o'rganishda dastlab umumiy kriminologik yondoshish lozim bo'ladi. Umuman, jinoyatchilarning, shu jumladan, korrupsionerlarning psixologik (ruhiy) xususiyatlari deyilganda, ularning individual sifatleri, turli sharoit va vaziyatlarga moslashuvchi axloqi, o'zi to'g'risidagi tasavvurlari, shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy ta'sirlar tavsifini qamrab oladi. Shaxs, shu jumladan, korrupsioner jinoiy xulqining bevosita shakllanishi va ro'yobga chiqishida shaxsiy omillari sifatida talablari, manfaatlari, qiziqishlarining yo'nalishlari, ijtimoiy qarashlari va shaxs ruhiy strukturasi elementlarining ijtimoiy yo'nalishlari ham qatnashadi.

Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan jinoyatchining shaxsiy o'ziga xos xususiyatlarini bir nechta guruhlariga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq. Birinchidan, ijtimoiy-demografik: korrupsiya jinoyatlari asosan, erkaklar tomonidan sodir etiladi (80%). Korrupsiyaviy xarakterdagi jinoyatlar, asosan, ijtimoiy jihatdan yetuk shaxslarga xosdir. Yosh oralig'i 40 yoshdan 50 yoshgacha (57%), 50 yoshdan kattalar (6%), 20 dan 30 gacha (45%), 20 yoshgacha bo'lgan shaxslar orasida esa bunday jinoyatlar sodir etilishi qayd etilmagan¹².

Ikkinchidan, jinoyat-huquqiy xususiyatlar: korrupsiyaga oid jinoyatlarni aqli raso va jinoiy javobgarlik yoshiga yetgan shaxslar sodir etadilar.

Uchinchidan, axloqiy-psixologik xususiyatlar: korrupsiyaga oid jinoyatlar axloq qoidalarini chuqur buzgan shaxslar tomonidan sodir etiladi, ular doimiy xudbinlik yo'nalishi va bunday jinoyatlarni sodir etishga qaratilgan jinoiy-huquqiy taqiqlarga salbiy munosabatda bo'lish kabi illatlarni mustahkamlash bilan tavsiflanadi¹³. Korrupsionerlarni axloqiy-psixologik tavsiflashda ularning jamiyat manfaatlariga salbiy munosabatini, haddan tashqari shaxsiy ehtiyojlariga ustuvorlik berishi (asosan g'araz ko'rinishida), noqonuniy boylik orttirish, o'zining g'araz maqsadlarini har qanday yoki o'zining mansab mavqeyidan foydalanib (pora oluvchilar), yoki mansabdor shaxslar (pora beruvchilar, vositachilar) orqali g'ayrihuquqiy yo'l bilan amalga oshirishga intilish umumiydir. Ko'pchilik hollarda umuman ehtiyoj, moddiy qiyinchilik emas, aynan past axloqiy daraja va qonunga nigilistik munosabat bunday shaxslarni poraxo'rlikka yetaklagan. Axloqiy va ayniqsa madaniy darajadagi farq pora beruvchi va pora oluvchilar harakatlarining psixologik asosini qisman tushuntirishi mumkin.

Korrupsionerlar qonunga itoatkor fuqarolardan qadriyat-me'yoriy tizimlarga nisbatan salbiy munosabatdagi shaxsiyatining xususiyatlari bilan farqlanadi. Bu ularning jinoyat sodir etishdagi omillardan biri axloqiy-ruhiy xususiyatlarida yotishini namoyon qiladi. Biroq, bu shaxs axloqiy-ruhiy shakllanishida ijtimoiy munosabatlar ta'siri ostida bo'lishini inkor etmaydi. Bunda shu narsa aniqki, korrupsionerlar shaxsi boshqa jinoyatchilar shaxsidan farq qiladi. Bunday odamlarning aksariyati yaxshi oiladan kelib chiqqan, yaxshi xodim (ba'zilar ishchanligi, ijobiy xizmat qilganligi bilan farqlanadi), oliy ma'lumotga ega, yoshiga kelganda esa, ular ruhan va dunyoqarash jihatidan ancha mustahkam kishilar sanaladi. Moddiy ta'minlanganlik jihatdan ham ularning ko'plari yuqori daromad manbalariga ega kishilardir (jinoyat sodir etmagan taqdirda ham). Ularning ko'pchiligida vatanparvarlik tuyg'ulari yo'q deyishga ham yetarli asos yo'q. Boshqacha aytganda, korrupsionerlar shaxsini o'rganish jinoyatchi shaxsiga umumiy odatiy

¹¹ <https://anticorruption.uz/uz/article/zbekistonda-korrupciyaga-oid-zinoiatlar-soni-kamaimoqda>.

¹² <https://anticorruption.uz/uz/article/>. Murojaat vaqti: 01.05.2024.

¹³ Саушева Е.А. Криминологическая характеристика личности преступника, совершающего коррупционные преступления. [Электронный ресурс]. <https://cyberleninka.ru/article>.

yondoshuvlarga qaraganda, ijtimoiy va yuridik - psixologik jihatdan o'rganish kerak bo'ladi.

Korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etilishiga rag'bat bo'ladigan holatlardan biri jamiyatda aksar bunday turdagi jinoyatlarning latent jinoyatligicha qolishi hisoblanadi. Qator davlatlardagi amaliyot shundan guvohlik beradiki, odatda quyi darajadagi va borsa o'rta darajadagi korrupsionerlar jinoiy jazoga tortilishadi. Ko'rsatilgan holatlar quyidagilar bilan bog'liq deb hisoblaymiz: korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etuvchi uyushmalarning, shaxslarning professionalizmi oshib bormoqda; amaldagi qonunchilikning takomillashmaganligi; korrupsiyaviy hodisalarga nisbatan aholining toqatiligi va loqaydligi; jinoiy yo'l bilan topilgan yirik miqdordagi pul mablag'lariga ega bo'lgan shaxslar bilan yuqori lavozimlarda ishlovchi, hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan mansabdor shaxslarning uzviy ish aloqalari o'rnatilganligi.

Xulosa. Fikrimizcha, maishiy korrupsiya amaldorlarning korrupsiyasidan deyarli farq qilmaydi, chunki bu harakatlar pora berishga tayyor bo'lgan odamlarning katta qismini qamrab oladi hamda ular mansabdor shaxslar korrupsiyasi uchun imkoniyat yaratadi. Shu sababdan ham profilaktika har qanday salbiy jarayonlarning dastlabki bosqichlarida rivojlanishining oldini olishning muhim vositasidir.

Korrupsiyaning maxsus oldini olish choralari esa quyidagilar kiradi:

- Davlat xizmatchilariga va mansabdor shaxslarga munosib hayot kechirish imkonini beradigan ijtimoiy ta'minot tizimini yaratish;
- Davlatning mansabdor shaxslari va boshqa toifaagi xizmatchilarining daromadlari va xarajatlarini deklaratsiyalash tizimini yo'lga qo'yish;
- Davlat xizmatiga kirishda kadrlar siyosati ustidan qattiq nazorat o'rnatish;
- korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi kurash olib borayotgan shaxslar (va ularning oila a'zolari)ning xavfsizligini ta'minlash¹⁴.

Ushbu fikrlarga qo'shimcha qilgan holda davlat korrupsiyaning oldini olishda quyidagi qo'shimcha maxsus choralarini qo'llashi maqsadga muvofiq:

Ochiqlik. Korrupsiyaning oldini olishda davlat organlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi, hisobdorligi hamda bu boradagi jamoatchilik nazorati muhim ahamiyatga ega. Davlat organlari faoliyati va budget mablag'larining taqsimlanishi to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq oshkor etilmasligi jamoatchilik nazoratiga to'sqinlik qiladi va korrupsiyaga sharoit yaratadi. Bu borada xorij tajribasiga e'tabor qaratadigan bo'lsak, jumladan, Daniyada 2002-yilda qabul qilingan "Korrupsiya to'g'risida"gi qonunning qoidalari Daniya hukumati vakillarini har yili o'z mol-mulki va shaxsiy daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni nashr etishga, xorijiy kompaniyalarda aksiyalarga ega bo'lishni taqiqlashga majbur qiladi, bu ularning boshqaruv faoliyatining oshkoraligi va shaffofligini, korrupsion holatlarini oldini olishga yordam beradi.

Korrupsiyaga qarshi ta'lim. Yosh avlod ongida korrupsiyaga qarshi kuchli va murosasiz immunitet shakllantirishga yo'naltirilgan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o'quv darslarini umumiy o'rta ta'lim maktablari dasturlariga kiritish maqsadga muvofiq. Inson shaxsiyati shakllanishining asosiy bosqichlari bog'cha va maktab davriga to'g'ri kelgani sababli ushbu davrda bolalarda korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish yuqori samara beradi.

Qozog'iston Respublikasining 2022-2026-yillarda korrupsiyaga qarshi siyosati konsepsiyasida¹⁵ (Qozog'iston Respublikasi Prezidentining 02.02.2022y. 802-son Farmoni) shaxs shakllanishining barcha bosqichlarida uni korrupsiyaga qarshi emlash muvaffaqiyatning

¹⁴Q.R.Abdurasulova, Kriminologiya. Darslik. -T.: Adolat, 2007. 182-b.

¹⁵ Об утверждении Концепции антикоррупционной политики Республики Казахстан на 2022 - 2026 годы и внесении изменений в некоторые указы Президента Республики Казахстан - ИПС "Әділет" (zan.kz).

fundamental omili hisoblanishi, bunda korrupsiyaga qarshi xulqni oilada rivojlantirish zarurligiga e'tibor qaratilgan.

Hadyani huquqiy tartibga solish. Mansabdor shaxslar va davlat xizmatchilarining nohuquqiy, tamagirlik bilan fuqarolardan sovg'a, hadya niqobi ostida pora olishlarini cheklash maqsadida ularning sovg'a, hadya tariqasida olishi mumkin bo'lgan tovarlar narxining maksimal miqdorlarini belgilab qo'yish lozim. Rossiya fuqarolik qonunchiligini oladigan bo'lsak (RFning FK 575-moddasi), davlat xizmatchilarining eng kam ish haqining besh baravari miqdoridan ortiq summadagi hadyalarni olishi taqiqlangan. Boshqa rivojlangan davlatlarda hadya miqdori xususan, AQSHda 20 dollar, Fransiya 35 yevro, Buyuk Britaniya 140 funt, Kanadada esa mansabdor shaxslarning pul ko'rinishidagi sovg'alar olishi qat'iyon taqiqlanadi, Singapurda davlat boshqaruvida faoliyat ko'rsatuvchi mansabdor shaxslarning gonorar, zaym, qimmatli qog'ozlar kabi to'lovlarni olishi taqiqlangan¹⁶.

Davlat xizmatchilarining xulq-atvor kodeksini joriy etish. Davlat amaldorlari va xizmatchilarining halolligini saqlash va bunga imkoniyat yaratish maqsadida, nafaqat korxona, muassasa, tashkilot doirasida, balki uning tashqarisida ham xodimlarning man etilgan xulq-atvor ko'rinishlarini namoyon etadigan, korrupsiya harakatlarining turli shakllarini aniq belgilaydigan Xulq-atvor Kodeksini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur. Xulq-atvor Kodeksi buzilgan hollarda xodimlarni javobgarlikka tortish imkonini beruvchi xulq-atvor sanksiyalar turlarining qat'iy tartibini belgilash maqsadga muvofiq. O'rganilgan bir qator rivojlangan davlatlarda davlat xizmatchilarining qat'iy bo'ysunishi lozim bo'lgan, axloqiy va intizomiy me'yorlarni o'z ichiga olgan axloq kodekslari qabul qilinganiga guvoh bo'lamiz. Masalan, AQSHda 1990-yil 17-oktabrda qabul qilingan "Davlat mansabdor shaxslarining axloqiy xulq-atvor tamoyillari" to'g'risidagi qonun (Principles of Ethical Conduct for Government officers and employers); Buyuk Britaniya "Davlat xizmatchisining maqomi" (The Civil Service order in Council), Davlat xizmatchilarining xulq-atvorining umumiy tamoyillari (General Principles of Conduct); Germaniyada "Davlat xizmatchisining intizomiy rejimi to'g'risida" Federal qonuni (Bundesdisziplinordnung — BDG); Fransiya "Davlat xizmatchisining maqomi" to'g'risidagi qonun (1946-yil) amal qiladi¹⁷.

Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda aytishimiz mumkinki, davlatning korrupsiyaning oldini olish borasidagi siyosati ikki yo'nalishda qurilishi kerak:

Davlat, birinchi navbatda, jinoyat-huquqiy chora-tadbirlarni qo'llash va kriminal profilaktika choralari qo'llash orqali korrupsiyaning oldini olishga majburdir. Korrupsiyaning oldini olish tizimida asosiy urg'u korrupsiyaga uchrashi mumkin bo'lgan sohalar ustidan ma'muriy, moliyaviy va ijtimoiy-huquqiy nazoratning turli shakllarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda namoyon bo'ladi.

boshqa tomondan, korrupsiyaga qarshi kurashda viktimologik choralar muhim rol o'ynaydi. Umuman olganda, korrupsiya qurboni jamiyatning o'zidir. Shuning uchun ham har bir fuqaro jamiyat a'zosi sifatida korrupsiyadan nafratlanishini namoyon qilishi, har bir shaxs yagona jamiyat a'zosi sifatida korrupsiyaga qarshi faol pozitsiyani egallashi davlat hokimiyati vakillarining korrupsion harakatlariga sharoit yaratilishining oldi olishga xizmat qiladi.

¹⁶ Актуальные проблемы противодействия коррупции : учебник / под ред. А. В. Юрковского. Иркутск : Иркутский юридический институт (филиал) Университета прокуратуры Российской Федерации, 2018. 105 с

¹⁷ Волженкин Б. В. Коррупция: Серия "Современные стандарты в уголовном праве и уголовном процессе". СПб, 2016.с-15.

REFERENCES

I. Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 52 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // [Elektron manba]. URL: <https://lex.uz/docs/111453>
2. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli Qonuni // [Elektron manba]. URL: <https://lex.uz/docs/3088008>.
3. O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 7 iyuldagi "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyuy-York, 2003 yil 31 oktyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi Qonuni // [Elektron manba]. URL: <https://lex.uz/docs/1369505>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2752-sonli qarori // [Elektron manba]. URL: <https://lex.uz/docs/3105125>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-sonli Farmoni.

III. Xalqaro-huquqiy hujjatlar:

1. Конвенция Организации Объединенных Наций против коррупции (Принята резолюцией 58/4 Генеральной Ассамблеи от 31 октября 2003 года) // [Электронный ресурс].
1. URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/corruption.shtml
2. Конвенция об уголовной ответственности за коррупцию (Страсбург, 27 января 1999 год) // [Электронный ресурс]. URL: <https://www.coe.int/ru/web/conventions/full-list/-/conventions/rms/090000168007f58c89>
3. Конвенция о борьбе с дачей взяток иностранным государственным должностным лицам при осуществлении международных деловых операций (Принята Конференцией полномочных представителей стран - членов ОЭСР 21 ноября 1997 года) // [Электронный ресурс]. URL: <http://docs.cntd.ru/document/901934989>

IV. Darslik va o'quv qo'llanmalar

1. Ochilov X. R., Xaydarov Sh. D., Shamsidinov Z. Z. "Jinoyat huquqi" (Umumiy qism). O'quv qo'llanma – T.: TDYU nashriyoti, 2021. – 172 bet
2. M. Usmonaliyev Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. —T.: "Yangi asr avlodi", 2010, – 664 b.
3. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 441 bet.
4. Dolgova A. I. Kriminologiya. Uchebnik dlya vuzov. 2001. S. 347.
5. Maksimov S. V. Korrupsiya. Zakon. Otvetstvennost'. M. 2008. S. 116.